



TANNARX

Po'latov Xudoyberdi O'ktamovich

SamISI, “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya
hisobi va audit” kafedrası katta o'qituvchisi

G'ayratov Abbas Yoqubjon o'g'li

SamISI talabasi

e-mail: abbosgayratov4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola buxgalteriya sohasida juda muhim bo'lgan yani tannarx haqida keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi. Jumladan unda tannarx haqida umumiy tushunchalar, uni turlari va tannarxning hisoblanishi yani kalkulyatsiya va shu mavzuga oid bir qancha ma'lumotlar yoritib beriladi. Ushbu mavzu nafaqat buxgalteriya balki iqtisodiyot va moliyaning ko'plab sohalarda keng qamrovli va o'z dolzarbligini yo'qotmagan muhim ahamiyatga ega mavzu hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tannarx, ishlab chiqarish tannarxi, to'la tannarx, chegaraviy tannarx, tijorat tannarxi, Kalkulyatsiya, Buyurtmali kalkulyatsiya, Jarayonli kalkulyatsiya, FIFO, LIFO, AVEKO, Me'yoriy (normativ) kalkulyatsiya, Rejali (smeta) kalkulyatsiya, Haqiqiy kalkulyatsiya.

Kirish. Tannarx mavzusi hardoim muhim va dolzarbligini yo'qotmaydigan mavzulardan hisoblanadi chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobatga kirishadigan



har qanday subyektlar sifat bilan bir qatorda maxsulotning narxi bilan ham raqobatlashadi shu sababli tannarx muhimdir uni sifat darajasiga salbiy tasir qilamasdan tushirish uchun juda ko'plab korxona va tadbirkorlar bosh qotirishadi va bu erkin bozor sharoitida tabiiy holatdir.

Tannarx – bu maxsulot ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlarining puldagi ifodasidir.

Tannarx bir vaqtning o'zida turli xil turlarga bo'linadi va ular quyda ko'rsatilinadi.

1. **Ishlab chiqarish tannarxi** – mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi.
2. **To'la tannarx** – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi.
3. **Chegaraviy tannarx** – har bir navbatdagi ishlab chiqarilagan mahsulot birligining tannarxi.
4. **Tijorat tannari** – mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan, yani uni qadoqlash, tashish va reklama qilish xarajatlari.

Kalkulyatsiya – bu maxsulotning bir birligi yoki umumiy tannarxini hisoblashni anglatadi va uni quydagicha hisoblash usullari yani turlari mavjud.

1. **Buyurtmali kalkulyatsiya** – bu so'z o'z nomidan ma'lumki oldindan hisob kitob qilinib buyurtma asnosida shakillantirilgan kalkulyatsiya turi hisoblanadi.

2. **Jarayonli kalkulyatsiya** – ushbu kalkulyatsiya turi odatda maxsulotlarni ishlab chiqarish bir necha jarayonlardan iborat bo'lgandanda qo'llaniladi.

Misol uchun Avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlar Avtomobilning qisimlarni ishlab chiqarib ularga alohida tannar belgilaydilar va oxirigi etabgacha yani tayyor mashina bo'lgandan so'ng yangi tannarx yani mashinaning tannarxi hosil bo'ladi.



Jarayonli usulda maxsulot tannarxiga korxonada materiallar chiqimini baxolashda qo'llanilayotgan metodlar, yani FIFO, LIFO va AVEKO metodlari ham turlicha tasir ko'rsatadi.

FIFO – birinchi kirim birinchi chiqim yani bu savdo sohasida misol qilib oladigan bo'lsak 1-kun A mahsulot tannarxi 1000 so'mdan 10 ta mahsulot keldi, 2-kun shu maxsulot 1500 dan 20 ta keldi 3-kun esa mahsulotdan mijozga 15 ta sotsak uni tannarxini belgilashda 1-kundan $1000 \cdot 10 + 2\text{-kundan } 1500 \cdot 5 =$ umumiy tannarx 17.500 ga sotishimiz bu FIFO usulida hisoblab sotganimizni ko'rish mumkin.

LIFO – bu oxirgi kirim birinchi chiqim manosini anglatadi va FIFO ga nisbatan teskari ravishda ishlaydi .

AVEKO – bu o'rtacha tannarxni belgilashni anglatadi.

3. Me'yoriy (normativ) kalkulyatsiya - hisobot davri boshiga hisob-kitob qilinadi va korxona kalkulyatsiya tuzish paytida ishlab chiqarishning texnik darajasi va mavjud texnologiyadan kelib chiqqan holda, amal qilayotgan norma va normativlarni hisobga olgan holda ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga moddalar bo'yicha sarflaydi.

4. Rejali (smeta) kalkulyatsiya - alohida kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisoblangan har bir buyum, mahsulot turi yoki guruhining tannarxi bo'lib, uning ko'lami korxona tomonidan oldindan rejalashtirilgan tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni amalga oshirgan holda nazorat qilib boriladi. Shuning uchun mahsulot tannarxining reja kalkulyatsiyasi normativ kalkulyatsiyadan past bo'lishi lozim.

5. Haqiqiy kalkulyatsiya - hisobot davridagi muayyan mahsulot turiga to'g'ri keladigan haqiqiy xarajatlarning miqdoridir. U bir vaqtning o'zida normativ yoki reja kalkulyatsiyasi bo'yicha tannarxdan chetga chiqishlarni hisoblash uchun qo'llaniladi.



Xulosa. Iqtisodiy sferada tannarx muhim kategoriya buni hech kim inkor qilmaydi chunki narxga to'g'ridan to'g'ri tasir qiladigan omil bu ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlar yig'indisi yanni tannarxdir. Jamiyatlar rivojlanishida narx muhim omillardan bo'lganligi bois davlat darajasida narxlar ko'tarilishi oldi olinishiga harakat qilinadi va har bir davlat va xalqlar o'zing strategiyalarini va yo'llarini ishlab chiqishadi bu bilan bir qatorda fuqorolarning sifatli va arzon narxlashtirilgan mahsulotlar bilan taminlash chora tadbirlari juda muhimdir. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki tannarxning muhim ahamiyat molik mavzuligini.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buxgalterya hisobi K.B.O'razov, M.E.Po'latov Toshkent 2021
2. Buxgalterya hisobi Milliy standartlari.
3. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari "International Financial Reporting Standards" 2007 <https://www.ifrs.org/>.
4. <https://www.wikipedia.org>
5. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. / Darslik. — T.: Choslpon nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2013. -311 b .
6. Buxgalterya hisobi Abduvaxidov F.T.,Qo'ziyev I.N.,Dadabayev Sh.X. TDIU 2019
7. Jo'raev N., Abduvaxidov F., Sotivoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2012-y. - 481 bet
8. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting (ISBN: - 13: 978-1-133-60760-1). - USA, 2014. 25 th Edition
9. Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting (ISBN 978-1- 292-08057-4), - London, 2015. 17 th Edition.
10. Ergasheva SH.T. buxgalterya hisobi Iqtisod-moliya 2011